
Rovshanjon ERGASHEV, Azizbek XUDOYOROV

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

ELEKTROMOBILLAR ISHLAB CHIQARISH LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada elektromobillar ishlab chiqarish loyihalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda turli nazariy qarashlar va fikr-mulohazalar tadqiq qilingan. Xalqaro amaliyotda elektromobillar ishlab chiqarish loyihalaridagi o'ziga xosliklar hamda milliy amaliyotda elektromobillar ishlab chiqarish loyihalari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: loyiha, ishlab chiqarish, elektromobil, gibrid avtomobil, loyihani moliyalashtirish.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF ELECTRIC CAR PRODUCTION PROJECTS

Abstract: In this article, various theoretical views and opinions have been researched in the study of the specific characteristics of electric car production projects. The peculiarities of electric car production projects in international practice and the conditions created for electric car production projects in national practice have been analyzed. Relevant conclusions are given based on the performed analysis.

Key words: project, production, electric car, hybrid car, project financing.

Kirish

Jahon iqtisodiyoti amaliyotidan shu narsa bizga ma'lumki, rivojlanish sari borayotgan har bir davlat o'z ichki investitsiyalarini va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga yo'naltirishga intiladi. Chunki investitsiyalarning butun iqtisodiyotni qamrab olishi bir paytning o'zida mamlakatda barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishi va takomillashuviga olib keladi. Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, keng iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish natijalari investitsiyalarni, xususan, turli sohalardagi ishlab chiqarish loyihalarini samarali

amaliyotga tadbqiq etish bilan ko‘proq ta‘minlanishi mumkin ekan. Amalga oshirilayotgan ishlab chiqarish loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab iqtisodiyotda yuz berayotgan o‘zgarishlar va siljishlar haqida xulosalar chiqarish mumkin. Umuman, bugungi kunda ishlab chiqarish loyihalari to‘g‘risida ko‘plab gapirilmoqda. Ishlab chiqarish loyihasi tushunchasining tobora keng qo‘llanilishi, avvalom bor, ushbu yangi atamaning iqtisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Odatda, har qanday investitsion tadbirkorlik muayyan maqsadga yo‘naltirilgan, mukammal darajada yaratilgan investitsiya g‘oyasiga asoslanadi. Mukammal darajada shakllantirilgan va asoslangan investitsiya g‘oyasi ishlab chiqarish loyihasining qaror topishiga olib keladi. Shu sababli elektromobillar ishlab chiqarish loyihalarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Loyiha - bu aniq belgilangan muddatlarga ega bo‘lgan hodisa (yoki jarayon), uning maqsadi noyob mahsulotni yaratish yoki ba‘zi innovatsion natijalarni olishdir. Biznesda loyihaning maqsadi ko‘pincha aniq muammolarni hal qilish deb ataladi. Shunga ko‘ra, loyiha boshqaruvi (Project Menejment) - bu loyiha tomonidan qo‘yilgan barcha vazifalarni amalga oshirish maqsadi bo‘lgan aniq faoliyat. Bunga erishish uchun maksimal kuch, bilim, tajriba, texnika va vositalar qo‘llaniladi. Loyihalarning o‘zi har qanday tashkilotning haqiqiy hayotining ajralmas qismidir. Har bir kompaniyaning o‘z rivojlanish strategiyasi va u ishlab chiqaradigan maqsadlari bor, ular alohida loyihalarda shakllantiriladi. Ularning tashkilotdagi kundalik faoliyatdan qanday farq qilishini tushunish muhimdir. Birinchidan, har bir loyihaning o‘ziga xos maqsadi va unga erishish uchun vaqt cheklovlari borligidir. Ikkinchidan, loyiha belgilangan maqsadga erishgandan keyin tugaydi. Kundalik harakatlar tabiatan hech qachon tugamaydi va ularning maqsadi biznesning normal oqimini saqlab qolishdir. Loyiha boshqaruvi (yoki loyiha boshqaruvi) belgilangan maqsadlarga tez va samarali erishishga yordam beradi. Bundan tashqari, jarayonda kompaniyaning umumiy maqsadlari uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan komplekslarning butun tizimi shakllantiriladi va resurslarni vakolatli taqsimlash sxemasi ishlab chiqiladi.

Bir qarashda murakkab ko‘rinadigan loyihani boshqarish tizimi bir qator ketma-ket harakatlarni o‘z ichiga oladi:

loyiha talablarini aniqlash va shakllantirish;

eng aniq va tushunarli maqsadlarni belgilash;
loyihada ishtirok etuvchi tomonlar o'rtasida aloqa o'rnatish va amalga oshirish;
loyiha cheklovlarini muvozanatlash: xususan, byudjet, resurslar, xavflar, muddatlar, sifat;
jamoalar bilan muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda va olingan materialga muvofiq mavjud rejalarni tuzatish.

Tadqiqot metodologiyasi


Mazkur maqolada biznes loyihalarini moliyalashtirishni diversifikatsiyalash masalalarini o'rganishda taqqoslama tahlil, tanlanma kuzatuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Xalqaro amaliyotda elektromobillar ishlab chiqarish loyihalari tobora kengayib bormoqda. Masalan, Meridiam o'zining sho'ba korxonasi Allego orqali Yevropada elektr transport vositalarini zaryadlash biznesining yetakchi operatori bo'lib, dunyodagi birinchi elektr transport vositalarini moliyalashtirish loyihasining moliyaviy homiysiga aylangan. Loyiha Fransiyadagi Carrefour savdo markazlarida butun hudud bo'ylab tarqalgan elektromobillar uchun o'ta tez zaryadlash punktlari tarmog'ini ishlab chiqish, foydalanish va texnik xizmat ko'rsatishdan iborat. Jami 2000 dan ortiq ulanish nuqtasiga ega 200 dan ortiq zaryadlash stantsiyalarini rivojlantirishni maqsad qilgan ushbu tarmoq to'liq yashil energiya bilan ta'minlanadi va 2023 yilgacha ishga tushadi. Loyiha Yevropa Ittifoqining 2030 yilga kelib karbonat angidrid gazi chiqindilarini 55 foizga kamaytirish majburiyatining bir qismi bo'lib, avtomobil transporti bu chiqindilarning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Ushbu majburiyatlardan va texnologik taraqqiyotdan kelib chiqqan holda, elektr transport vositalari bozori akkumulyator zavodlari va elektr transport vositalarini zaryadlash punktlari kabi tegishli bozorlar qatorida sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda [1].

BBVA banki iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda o'z mas'uliyatining namoyishi sifatida 2018-yilda "Yashil moliya", barqaror infratuzilma, ijtimoiy tadbirkorlik va moliyaviy inklyuzivlik uchun jami 100 milliard yevro mablag' jalb etishni rejalashtirgan. Uch yildan so'ng bank o'z maqsadini 200 milliard yevroga oshirdi. 2018 yildan 2021 yil sentyabrigacha BBVA banki allaqachon 75 milliard yevro

mablag' o'tkazgan. Bankning maqsadi dekarbonizatsiya bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarda mijozlarni moliyalashtirish, maslahat va innovatsion yechimlar bilan qo'llab-quvvatlashdir. Ushbu jarayon davomida ixtisoslashtirilgan sektor bilimlari va o'tish vositalarini ishlab chiqish asosiy elementlardir.



1-rasm. 2030-yilga qadar elektromobillar va gibril avtomobillarni sanoat usulida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar [2]

Milliy amaliyotimizda yashil texnologiyalarni barcha sohalarga faol joriy etish, elektromobillar va ularning butlovchi qismlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash orqali havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini qisqartirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilangan bo'lib, 2030-yilga qadar elektromobillar va gibril avtomobillarni sanoat usulida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi choralarni amalga oshirish ko'zda tutilgan (1-rasm).

Shuningdek, elektromobillar va gibril avtomobillarni to'liq siklda ishlab chiqarish jarayonlari o'zlashtirilgunga qadar, biroq loyiha amalga oshirilishi boshlangan vaqtdan 24 oydan ko'p bo'lmagan vaqt mobaynida ishlab chiqaruvchilarga elektromobillarni va gibril avtomobillarni bojxona boji va utilizatsiya yig'imi to'lamasdan, yaratiladigan ishlab chiqarish quvvatlarining 50 foizigacha, ammo yiliga 10 mingdan ko'p bo'lmagan miqdorda, yirik uzelli ishlab chiqarish uchun mashinokomplekt yoki tayyor avtomobil holatida olib kirishga ruxsat berish hamda respublikada ishlab chiqarilgan va ichki bozorda sotilgan, elektromobil va gibril avtomobillarni sotib olish uchun jismoniy shaxslarga milliy valyutada ajratiladigan bazaviy hisoblash miqdorining 1 200 baravaridan oshmaydigan kreditlar bo'yicha foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan

oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun kredit muddatining dastlabki 36 oyi davomida Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan kompensatsiya to‘lash tartibi joriy qilinishi ko‘zda tutilgan.

1-jadval

2023-2025-yillarda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalar tomonidan xarid qilinadigan elektromobillar va gibrid avtomobillar bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar [2]

T/r	Vazirlik, idora va xo‘jalik birlashmalari	2023-2025-yillarda		shu jumladan:					
		soni (birlik)	summasi (mln so‘m)	2023-yil		2024-yil		2025-yil	
				soni (birlik)	summasi (mln so‘m)	soni (birlik)	summasi (mln so‘m)	soni (birlik)	summasi (mln so‘m)
	Jami	3 863	1 316 976	806	269 026	1 281	454 591	1 776	593 359
	Vazirlik va idoralar	2 765	937 450	579	189 574	894	308 771	1 292	439 105
	Mahalliy davlat boshqaruv organlari	276	108 148	61	23 638	86	33 800	129	50 710
	Ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalar	822	271 378	166	55 814	301	112 020	355	103 544

2023-2025-yillarda davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalar tomonidan xarid qilinadigan elektromobillar va gibrid avtomobillar bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarga ko‘ra mazkur yillarda jami 3863 dona elektromobil va gibrid avtomobillar xarid qilinishi rejalashtirilgan (1-jadval).

Xulosa

Elektromobillarni ishlab chiqarish loyihalarini joriy etish yuqori xarajatlar, cheklangan haydash masofasi, zaryadlash infratuzilmasining nomutanosibligi va jamoatchilik fikri kabi muammolarga duch keladi. Biroq, bu muammolarni hukumat siyosati, xususiyl sektor investitsiyalari kabilar orqali ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin. Yashil energiyadan foydalanishni oshirish, elektromobillardan foydalanish imkonini beruvchi yangi biznes modellarini ishlab chiqish, zaryadlash infratuzilmasiga sarmoya kiritish, batareya texnologiyasi va zaryadlash tezligini

yaxshilash va imtiyozlar haqida tadbirkorlarni xabardor qilish kabilar mazkur turdagi loyihalarning rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.bbva.com/en/sustainability/meridiam-formalizes-the-worlds-first-electric-vehicle-project-finance-with-bbva/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2022 yildagi "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-443-son Qarori; <https://lex.uz/en/docs/-6316583>
3. Jiang, D.; Huo, L.; Zhang, P.; Lv, Z. Energy-Efficient Heterogeneous Networking for Electric Vehicles Networks in Smart Future Cities. IEEE Trans. Intell. Transp. Syst. 2021, 22, 1868–1880. [Google Scholar] [CrossRef]
4. Castro, T.S.; de Souza, T.M.; Silveira, J.L. Feasibility of Electric Vehicle: Electricity by Grid× Photovoltaic Energy; Elsevier: Amsterdam, The Netherlands, 2017; Available online: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1364032116305895> (accessed on 15 April 2023).
5. Global EV Outlook 2022—Analysis—IEA. Available online: <https://www.iea.org/reports/global-ev-outlook-2022> (accessed on 15 April 2023).
6. Shahzad, M.; Shafiq, M.T.; Douglas, D.; Kassem, M. Digital Twins in Built Environments: An Investigation of the Characteristics, Applications, and Challenges. Buildings 2022, 12, 120. [Google Scholar] [CrossRef]
7. Song, M.; Cheng, L.; Du, M.; Sun, C. Charging station location problem for maximizing the space-time-electricity accessibility: A Lagrangian relaxation-based decomposition scheme. Expert Syst. Appl. 2023, 22, 119801. [Google Scholar] [CrossRef]
8. Program 18: Electric Transportation|Overview. Available online: <https://www.epri.com/research/programs/053122/overview> (accessed on 15 April 2023)